

MIQDOR TUSHUNCHALI MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Namangan Davlat universiteti filologiya fakulteti lingvistika (o‘zbek tili)
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti Turobjonova Dilrabo**

Annotatsiya: Maqola miqdor tushunchali maqollar semantikasi haqida. Maqolada son va miqdor ishtirok etgan maqollar, ularning asarlarda qo‘llanilishi va izohi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Maqol, hikmatli so‘z, izohli lug‘at, ideoma, pragmatik birlik, semantika, son so‘z turkumi, ravish so‘z turkumi, "Hikmatnoma"*

Abstract: *The article is about the semantics of adverbs with the concept of quantity. The article presents proverbs involving number and quantity, their use and explanation in the works.*

Keywords:

Proverb, wise word, explanatory dictionary, ideo, pragmatic unit, semantics, numerical vocabulary, idiomatic vocabulary, "Hikmatnoma".

Xalq maqollari inson hayoti davomida o‘z fikrini yanada yorqinroq ifodlash uchun ishlatiladi. Maqollar hayotiy tajribalarning majmuidir. Uning paydo bo‘lishining asosiy mabai inson faoliyatining mahsuli bo‘lib, har bir millat, shu jumladan o‘zbek xalqi ham maqolda o‘zining milliy xarakter- xususiyatlarini, tafakkur tarzini namoyon etadi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi, yoki maqol darajasida asoslab berolamaydi.

Davlatimiz rahbari milliy qadriyatlarimiz, mafkuramiz to‘g‘risidagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tsak: “Biz yashayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[1]. Darhaqiqat, xalq mafkurasi uzoq yillar davimida shakllanib sayqallanib boradi. Mafkuraning qay darajada yetukligi xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va matallarida aks etadi.

Maqol haqida olimlarning fikri. Maqol xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan bo‘lib, tub ildizi bilan juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Maqollarning paydo bo‘lishi bo‘yicha ko‘pgina xorij olimlari turli fikr- mulohazalar bildirgan. “V.A. Jukovning ta’kidlashicha, qachondan xalq orasida maqollar qo‘llana boshlaganini

aniqlash qiyin masala, ammo shu narsa aniqki, ular juda qadimdan paydo bo'lgan va insoniyatning butun umri davomida unga harohlik qilib kelmoqda.”[1] Maqollarning qachon paydo bo'lagi aniq emas. N.V.Zimovetsning qayd qilishicha, maqollarning kelib chiqishi xalq tafakkurining mahsulidir. Olim ingliz maqollarining paudo bo'lish manbai sifatida xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, Bibliya, boshqa xalqlar madaniyati va mashhur kishilarning hikmatli so'zlarini sanab o'tadilar.[2]

So'nggi yillarda maqol janrini o'rganish borasida bir necha ishlar olib borildi. Bu boradagi ilk yirik tadqiqot SH.SHomaqsudov va SH.SHorahmedovlarning “Hikmatnoma” (O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati)ni aytib o'tishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida xalq maqollari o'zga bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi. Yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. “Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, H.Berdiyev, R.Rasulov, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiev, M.Hakimov larning ishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.”^[4] Maqollar bo'yicha yana bir yirik ishni Barno Jo'rayeva amalga oshirdi. U xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'atini yaratdi, bu bo'yicha dissertatsiya himoya qildi. Bibish Jo'rayeva “O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va huddi shu mavzuda kitob chop ettirdi. Ilmiy risolada maqollar, ularning ibora, matal, ideomaning lingvistik, semantik, pragmatik jihatdan taqqosladi. Maqollarning mavzu ko'lami jihatdan har bir turi alohida izohlandi. Xalq maqollarining shakllanishini ikki katta guruhga bo'lib o'rgandi:

- Ekstralingvistik;
- Intralingvistik.

Bir nechta miqdor- son Miqdor tushunchali maqollarni izohlab o'tadi: Muhabbat bitta, ko'zi to'rtta, Elning qulog'i ellikta, Qirqingga bir qozon, Mehmonning otini asl derlar, uch kundan keyin sasir derlar. ² “Qirqingga bir qozon” maqoli tahminan XIX asrda paydo bo'lgan. B.Jo'rayevaning fikriga ko'ra, qo'qonlik Yoqubbek (taxallusi Badavlat) Qashqarni olgach tunganlarni batamom tamom qilish maqsadida zo'r berib urush taraddudini ko'radi. Qurol-aslaha, to'p-zambaraklar yetishmovchiligi yuz beradi. Shu chog' Yoqubbek xalqning qozonlaridan to'p- zambaraklar yasashga buyruq beradi. Bunga qarshi chiqqanlarni o'lim jazosiga hukm qiladi. O'sha davr tarixchilarining esdaliklarida yozilishicha, xalqqa haddan tashqari jabr- sitamlari uchun uni xalq juda yomon ko'rgan. Yuqoridagi maqol esa xalq uning tilidan zaxarhanda va achchiq kinoya bilan “mendani omonlik ko'rmaysan!”, “tavbangga tyantiraman!”, “kuningni

ko'rsataman!" ma'nolarida qo'llanilgan. Garchi men olimu shayxizamon, Qirqingizga emdi beray bir qozon(Muqumiyydan)[2].

Miqdor tushunchali maqollarda miqdorni bildiruvchi so'zlardan, ko'pincha ravish va son so'z turkumdan foydalaniladi. Ravish so'z turkumida miqdor- daraja ravishlari orqli yasaladi: oz, ko'p (Ko'p yomg'ir yerni buzar, ko'p so'z erni buzar), mo'l (Qor mo'l yog'di – don mo'l yog'di).

Son so'z turkumi orqali aniq miqdorni ifodalovchi maqollar hosil qilinadi:

- O'ttiz kun ro'zaning bir kun hayiti bor.
- Bir ko'ngil imorati, Ming Makka ziyorati.
- Sakson kun sanoqda, To'qson kun tovoqda.
- Qirq yilda bir eshak o'yin.
- Mehmonning otini asl derlar, Uch kundan keyin sasir derlar.
- Ikki sigiring bo'lsa moy, Ikki xotining bo'lsa voy.
- Bir yil tut ekkani kishi – Yuz yil gavhar teradi.
- Elning qulog'i ellikta.

Musulmon dinida ro'za islom dinining asosiy ruknlaridan biri sanaladi. Ro'zdor kishi yeyish, ichish, nomaqbul ishlardan tiyilishi zarur. Dastlabki maqolda sabrning yakuni albatta hayrli bo'lishi aytilmoqda. ***Bir ko'ngil imorati, Ming Makka ziyorati*** – Makka shahri Islom dinining markazi, u yerda musulmonlar tavob qiluvchi Baytulloh joylashgan. Dinimizda qalbni allohning omonati, uni "sindirish" Kabatullohni vayron qilish bilan tenglashtirilgan. Bu xususida mutafakkir bobomiz hazrat Navoiy shunday deydi:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Darhaqiqat, mo'min kishi boshqa bir mo'minga to'g'ri maslakdosh bo'lsa, uni qiynayotgan masalani o'zaro hal qilib, mushkulini oson qilsa, unga sherik bo'lib qayg'usini aritsa, o'zining ham qayg'usi ketadi, birovga yordam berdimi unga ham yordam beriladi. Bu haqda hadisda: "Kimki bir musulmonning dunyo qayg'ularidan bir qayg'usini yengillashtirsa, Alloh uning qiyomat kunidagi qayg'ularidan birini yengillashtiradi. Kimki dunyoda bir qiynalgan musulmonning og'irini yengil qilsa, Alloh taolo uning qiyomatdagi og'irini yengil qiladi. Kimki bu dunyoda bir musulmonning aybini yashirsa, Alloh taolo uning dunyo va oxiratda aybini

yashiradi. Madomiki, bir banda boshqa bir bandaga yordam qilsa, Alloh taolodan unga madad yetadi” deyiladi (Imom Termiziy rivoyati)[5].

Miqdorni bildiruvchi soʻzlar maqol tarkibida zamon semasida ham kelishi mumkin: Sakson kun sanoqda, Toʻqson kun tovoqda maqoli bugʻdoy yerga ekilgandan to sakson oʻtgungacha pishib yetiladi. Soʻngra oʻn kun ichida oʻrib yanchiladi, tegirmondan oʻtkazi b un qilinadi. Osh- non boʻlib tovoqqa tushadi, yaʼni yegulik taomga aylanadi. Buni quvvatlovchi “salomatlik boʻlsa, sakson kunda yuz koʻrishamiz” degan maqol ham bor. Bu soʻzni goʻyo bugʻdoy urugʻi yerga sepilayotganda dehqon bilan xayrlasha turib aytar emish[6]. *Yilning oyi koʻp, oyning kuni koʻp* maqol “Hikmatnoma”da shunday izohlandi: Bir odam bir odamga biror nimani vaʼda qilsa-yu, uni vaqtida bajarmasa, paysalga solib, aladab- suldab yursa, ohiri u odamning toqati toq boʻlib, jahli chiqib: “Axir qachon qilasan, yilning oyi koʻp, oyning kuni koʻp, bir kunni aniq aytadi-da!” deydi. Huddi shu semani ifodalovchi *Afandining ertasi koʻp* maqoli yuqoridagi maqolga sinonimlik qiladi. Abdulla Qahhorning “Oʻgʻri” hikoyasi qahramoni Qobil boboning vaziyatiga nisbatan quyidagi maqollarni izoh sifatida keltirish mumkin. *Berganga bitta ham koʻp, olganga oʻnta ham oz* maqolida bosh qahramon sigiri topilishi uchun mansabdor shaxslarga uyidan topgan- tutganini pora tariqasida beradi, lekin ularga kamlik qiladi. Bu holat asar ohirigacha davom etadi.

“Bir kun urush boʻlgan uydin qirq kun baraka koʻtarilar», «Bir kunlik isitma, qirq kunlik kuchni olar” maqoli lingvistik jihatdan tahlil qilinganda strukturasi koʻra murakkab, lingvistik jihatdan esa sanoq sondan keyin hisob soʻzni keltirish bilan shakllangan maqollar sirasiga kiradi. Tarkibidagi miqdor bildiruvchi soʻzlar(*bir- qirq* sonlari) oʻzaro zidlangan. Semantik nuqtai nazaridan ahillik- inoqlik oila ustuni ekani aytib oʻtiladi. Maqollarni O.Madayev quyidagicha izohlaydi: “... Ajdodlarimiz bizni zudlik bilan ahil boʻlishga, ittifoqli turmushga, oʻrtadagi izolarni koʻtarishga chorlaganlar va muammoli vaziyatning yechimini tezroq topishga undaganlar. Ammo bu yechim aql, farosat bilan topilishi tavsifa etilgan”[7].

Maqollar, hikmatli soʻzlar xalqning noyob madaniy va maʼnaviy merosi. Xalq hikmatli soʻzlariga Abdulla Qodiriy shunday taʼrif beradi: “Turmush onasining dard chekib tuqqan toʻngʻich oʻgʻli”. Darhaqiqat xalq ogʻzaki ijodining eng keng tarqalgan janri ham maqol sanaladi.

Xulosa.

1. Maqollar asosan xalq hayotiy tajribasining natijasidir.
2. Maqollar grammatik jihatdan gap holida shakllanadi, asosan shery, ba'zi holatda nasriy tuzilishga ega.
3. O'zbek xalq maqollarining ilk yirik lug'ati Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar tomonida tuzilgan "Hikmatnoma" asari sanaladi.
4. So'nggi yirik tadqiqot Bibish Jo'rayeva tomonidan olib borilgan.
5. Miqdor tushunchali maqollarda fikr aniqroq ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Gazeta.uz" sayti
2. B. Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari"
3. Zimovets. N. V "K voprosu diapozone varirovaniya fizeologizm"
4. Ibrohimjonova. Z "Xalq maqollar va ularning sintaktik va semantik xususiyatlari" maqolasidan.
5. <https://saviya.uz/ijod/publitsistika/kimki-bir-kongilni-obod-aylasa>
6. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov "Hikmatnoma" (O'zbek maqollarining izohli lug'ati)
7. O. Madayev, T. Sobitova "Xalq og'zaki poetic ijodi" «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT — 2010